



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Berdirasulova Nargiza

*Nukus davlat pedagogika instituti, O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
magistranti. e-mail: nberdirasulova@gmail.com*

GULJAMOL ASQAROVA VA XOSIYAT RUSTAMOVA SHE'RIYATIDA LIRIK TASVIR VA BADIY IFODA

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida badiiy ifoda va talqin muammosi o'rganilgan. Unda she'riyatda tasvir, tasavvur va badiiy mahorat masalasi Guljamol Asqarova va Xosiyat Rustamova kabi shoirlar ijodi misolida ilmiy-nazariy tahlilga tortilgan. Shuningdek, tanlangan she'rlarda psixologik tasvirning o'ziga xosligi va uning ijtimoiy-psixologik asoslari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: lirika, lirik subyekt, obraz, badiiy detal, ijodiy individuallik.

ЛИРИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ В ПОЭЗИИ ГУЛЖАМОЛ АСКАРОВОЙ И ХОСИЯТ РУСТАМОВОЙ

Наргиза Бердирасулова

магистрант по специальности Узбекский язык и литература,
Нукусского государственного педагогического института.
e-mail: nberdirasulova@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается проблема художественной выразительности и интерпретации в современной узбекской поэзии. В ней вопрос образа, воображения и художественного мастерства в поэзии доведен до научно-теоретического анализа на примере таких поэтов, как Гулжамол Аскарсовой и Хосият Рустамовой. Также в избранных стихотворениях

подчеркивается своеобразие психологического образа и его социально-психологической основы.

Ключевые слова: Лирика, лирический сюжет, образ, художественная деталь, творческая индивидуальность.

LYRICAL DESCRIPTION AND ARTISTIC EXPRESSION IN THE POETRY OF GULZHAMOL ASKAROVA AND KHOSIYAT RUSTAMOVA

Nargiza Berdirasulova

Master's student majoring in Uzbek language and literature, Nukus State
Pedagogical Institute. e-mail: nberdirasulova@gmail.com

Annotation. The article examines the problem of artistic expression and interpretation in modern Uzbek poetry. In it, the issue of image, imagination and artistic skill in poetry is brought to scientific and theoretical analysis using the example of such poets as Gulzhamol Askarova and Khosiyat Rustamova. Also, the selected poems emphasize the originality of the psychological image and its socio-psychological basis.

Keywords: Lyrics, lyrical plot, image, artistic detail, creative individuality.

Kirish (Introduction). She'riyatda inson ma'naviy olamini, qalb tug'yonlari, dard-u iztiroblarini turli xil shakl va ifodalarda badiiy talqin qiladi. Mazkur jarayonda she'riyatda vujudga keladigan struktural va shakliy izlanishlar shoirlarning ijodiy individualligini namoyon etadi. So'nggi yillar she'riyatida inson ruhiy olamini badiiy ifoda etishda yangicha tamoyillar vujudga keldi. Zero, "O'zbek she'riyati istiqloq yillarida ko'plab erkinliklarga ega bo'ldi. Mumtoz adabiy janrlar, an'anaviy mavzulardan foydalanish imkoniyati ortdi. Bu yo'lda xalq ijodining oltin bisoti, ramz va majozga to'yingan Sharq adabiyoti, ma'rifatga yo'g'rilgan diniy-tasavvufiy adabiyotdan oziqlandi, ularni ijodiy o'zlashtirdi. Bugun dunyoga tobora integratsiyalashib borayotgan millat adabiyotida ham yangicha janrlar, shakllar urfga kirmoqdaki, ularning shakliy belgilari, xos xususiyatlarini o'rganish ustuvor vazifa hisoblanadi" [1.5]. Shu ma'noda iste'dodli shoirlar: Guljamol Asqarova va Xosiyat Rustamovalar she'riyatda ruhiyat tasviri va tasvir ruhiyati masalasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). She'riyatda ruhiyat tasviri bilan bog'liq masalalar adabiyotshunoslikda turli ijodkorlar misolida o'rganilgan. Ammo ruhiyat ta'siri va tasvir ruhiyati uyg'unligi va o'zaro munosabati masalasi monografik tadqiq qilinmagan. Biz mazkur maqolada ayni shu muammoni G.Asqarova va X.Rustamovalar ijodi misolida tahlil qilishga harakat qildik. Zero,

mazkur ikki shoira o'ziga xos tasvir va ifodalar, noyob badiiy topilmalar orqali kitobxonlar e'tirofiga sazovor bo'lmoqdalar.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Inson ruhiyatining har qanday holatida ham adabiyot unga hamisha hamroh. Negaki, inson so'z va uning sehriga muhtoj. Negaki, inson mohiyati turli davrlar she'riyatida turlicha jilo beradi. Chunki, har bir davr alohida spetsifikaga ega ijtimoiy-psixologik muhit sifatida insonga – shoirga o'z ta'sirini o'tkazadi va bu ta'sir shoir orqali she'rga ko'chadi. Shu tariqa she'riyat shoir tomonidan taklif etilgan davr siyratini aks ettiruvchi ko'zguga aylanadi. Zero, shoir shaxsini muayyan iqlimli davr yoki davrlar yetiltiradi. Shunga ko'ra, uning she'riyati o'zi mansub bo'lgan davr (yoki davrlar) ruhi bilan to'yingandir. Shoir shaxsi ma'naviy jihatdan qanchalar yuksalib borsa, she'rning ham darajasi shunga yarasha ma'nan o'sib boradi. Shuning uchun ham shaxs-shoir, qismat shoiri va u davrdan mavzu olishi barobarida o'rni kelganda, unga mavzu ham beradi. Shu tarzda haqiqiy she'riyat faqat davrning farzandi bo'lib qololmaydi, u shaxs-shoir qiyofasida davrlarga xitob qiladi, uning holiga u yoki bu darajada ta'sir o'tkazadi" [7.14-15].

Ta'kidlash lozimki, bugungi o'zbek she'riyati har jihatdan rivojlanib, taraqqiy etib bormoqda. Bugungi ijodkorlar orasida o'z she'rlari bilan ko'pchilikning qalbidan joy olib kelayotgan shoiralardan biri Guljamol Asqarovadir. Uning she'rlarida inson butun murakkabligi bilan tasvirlanadiki, ularni o'qib kitobxon o'z hayoti va umr mohiyatini qayta taftish qilishga ehtiyoj sezadi. Xususan, shoira "Xavotir" deb nomlangan she'rda shunday satrlarni kuzatamiz:

Juda baxtli bo'lgim kelyapti,
Ko'zimdan yosh quyilar kulsam.
Nima gunoh axir menda ham,
Saroblarga ishongan bo'lsam?

Bugun shundoq bir g'arib holman,
Yurak to'la qayg'uday, ohday.
Ne qilarim bilmayin lolman,
Oltinlari mis chiqqan shohday [3.185].

Mazkur she'rda shoira oqlanmagan umid, ishonch kabi yuksak orzulardan noliyotgan lirik qahramon ruhiyatini o'ziga xos tarzda badiiy talqin qilgan. She'rdagi lirik qahramon ruhiyatining tasviri uni o'qigan, anglagan kitobxonda turli xil ruhiyat paydo qiladi. Zero, har bir o'quvchi ushbu bandlardagai satrlar, tasvirlar orqali o'z hayoti, o'tgan umr mohiyatini tahlil qilishga majbur bo'ladi. Hayotida erishgan yoki erisholmagan natijalari uchun o'zini taftish qilib ko'radi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov ta'biri bilan aytganda: "Real borliqdagi, inson ruhiyatidagi turli-tuman o'zgarishlar va kechinmalarni ijodkor o'z ongi, dunyoqarashi, estetik ideali, g'oyaviy

maqsadi orqali sintez qilishi oqibatida badiiy obraz shakllanadi. Shu sababli ijodkor yaratgan har bir yangi obraz yangi bir hilqat, yangi bir kashfiyotdir. Bunday obrazlar inson ma'naviy dunyosini boyitadi, ruhini bardam qiladi. Bunday obrazni yaratish uchun, birinchidan, voqelik materialida obyektiv asos, oddiyroq qilib aytganda, xamirturush kerak. Ikkinchidan, tanlangan hayotiy materialni qanday tasvirlash yoki ifodalash ijodkorning xohishi va maqsadi, iqtidori va mahoratiga bog'liq holda kechadi" [5.13]. Shunday ekan, G.Asqarova she'ridagi lirik qahramon ruhiyati tasviri bu shoira ijodida yillar davomida yetilib sayqallangan lirik kechinma mahsuli deyish mumkin.

Ayni shunday ruhiy kechinmalar badiiy talqinini shoira Xosiyat Rustamova ijodida ham ko'plab uchratish mumkin. Shoira she'riyatida hamma tomonidan qabul qilingan hayotiy mezonlar tamomila o'zgacha mazmunda aks etish holatlari mavjud. Shuningdek, inson ruhiy holatlarini tabiat qonuniyatlari bilan uyg'unlikda ifodalashda shoira o'ziga xos uslubiy ifodalarga ega:

Yo Tangrim,
Sen menga kuch ber,
Ber chidam –
Xuddi daraxtlarday ko'tarayin qad.
Ichimga qor yog'ib turganida ham,
Men kulib turishim kerak hamma vaqt.
Qushlar daraxtlarni aylasa ham tark,
Chidar [4.79].

She'riy ifodaning o'ziga xos shakli, ohangi va tasviri o'quvchi ko'z o'ngida aniq tasavvur uyg'otadi. Undagi "Ichimga qor yog'ib turganida ham, Men kulib turishim kerak hamma vaqt" satrlari insoning hayotiy iztiroblar oldida taslim bo'lmasligi kerakligini ta'kidlaydi. "Qushlar daraxtlarni aylasa ham tark, Chidar" satrlarida esa har ikki tomon (daraxt va qushlar) misolida ruhiy holat va uning ijtimoiy-psixologik asoslariga urg'u qaratadi. Zero, qushlar daraxtlarni (fasl almashuvi, daraxtning qurishi, kesib tashlanishi, tashqi ta'sir, turli xavf-xatarlar va h.k.) turli sabablar bilan tark etishi mumkin. Xuddi shu ruhiyat tasvirining ruhiyati she'rxon uchun katta ma'naviy ozuqa beradiki, u shu badiiy tafakkur mahsuli natijasida o'z "daraxti" yoki o'z "qushi"ni tushunishga, anglashga, ardoqlashga uni avaylashga o'zida ma'naviy ehtiyoj sezadi. Zero, "Lirik asarning yetakchi obrazi – lirik qahramon, lirik asar o'qilganda lirik qahramon holati, kayfiyati, kechinmalar qanday holatda yuzaga kelgani, uning his-kechinmalariga turtki bo'lgan voqelik fragmentlari his etiladi. Biroq, lirik qahramonning o'zi jonli inson (ya'ni obyektivlashtirilgan tasvir) sifatida namoyon bo'lmaydi" [8.15]. Shu ma'noda yuqoridagi she'r katta falsafiy mazmun-mohiyat kasb

etgan holda unda lirik qahramon ruhiyati ifodasida muallif badiiy mahorati yorqin namoyon bo'lgan.

Aytsam ishonmaysan – borman hali ham,
Yelkamga yuklangan to'rt fasl, to'rt qish.
O'zi bo'ladimi, qirq yil naridan,
Eng og'ir yurakni ko'tarib kelish.

Charchadim.
Og'riqlar ko'ksimga botdi,
Bu holda dunyodan o'taman qanday?
Yuragim to'xtadi bir zum – Hayotning
Qo'rqinchli joyiga yetib kelganday [9].

Xosiyat Rustamovanning mazkur she'rida ham ruhiy holat va poetik mantiq uyg'unligi mohirona ifodalangan. She'riy idrokda lirik qahramon sezimlari, uning ruhiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar yorqin aks ettirilgan. She'rdagi "to'rt fasl, to'rt qish" – lirik qahramon ruhiyatida doimo qahraton qish kabi bo'lib, hech ilqlik ko'rmaganini anglatga, shuning natijasida sodir bo'lgan "eng og'ir yurak" ham o'zining badiiy tasdig'ini topgan. She'r mazmunida "Ruhiyatdagi nozik tovlanishlarni mantiqiy yakuniga yetkazadigan rivoya texnikasida individual qirralarni badiiy umumlashma darajasiga ko'tarishga bo'lgan mayl ustuvorlik kasb etgani holda universal belgi poetik munosabat o'ziga xosligini ta'minlaydi" [2.43]. E'tirof etish kerakki, she'riyatdagi qalb kechinmasi, ruhiyatga ko'chgan nozik tuyg'ularni ifodalash hamisha katta badiiy mahoratni talab qilib kelgan. Zero, "Chinakam she'rda mantiqdan ko'ra tuyg'u ustuvorlik qiladi. Bunday bitikda mantiq izchilligi emas, hissiyot va kayfiyat muntazamligi aks etgan bo'ladi. Shoir olam hodisalarining barcha odam ilg'ay oladigan real ko'rinishini emas, balki faqat ularning o'z ruhiyatida qoldirgan manzarasini chizadi" [6.368]. Yuqoridagi she'rda ko'rinadiki, unda lirik qahramonning qirq yil davomidagi orzu- umid, istaklarini sarhisob qiladi. Badiiy tafakkur orqali akslantirilgan ruhiy kechinma tafsilotlarini yuzaga chiqaradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). She'riyatda ruhiyat tasvirining aks etishi ijodkordan yuksak mahorat talab qiladi. Qolaversa, mazkur tasvirni vujudga keltirish mumkin bo'lgan ruhiyati ham alohida masaladir. Zero, she'riy ifodada tasvirlangan muayyan bir holat, uni tasvirlashga xizmat qilgan obraz yoki badiiy detallar, she'r muallifi yoki lirik qahramon ruhiy holatining muayyan onlari, nuqtalarida o'zaro kesishadi, aniq ma'no yuzaga keltiradi. Yoki uni anglash, his qilish uchun o'quvchidan muayyan tajriba va salohiyat talab qiladi. Biz kuzatgan she'rlarda har ikkala shoiralar she'rlaridagi ruhiyat tasviri inson ichki olamining tabait va jamiyat, odam va olam sinoatlari bilan uyg'un holda ifodalanadi. Ularda hayot,

inson umri mohiyati o'quvchi – kitobxon uchun o'ziga xos ibrat, maktab vazifasini o'taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mamiraliyev Q. Istiqlol davri o'zbek shariyatida janrlar modifikatsiyasi. Filol. fan. fals. d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022.
2. Matyakupov S. Hozirgi o'zbek she'riyatida dialog va ritorik munosabat sintezi.–Toshkent: Firdavs shoh, 2023.
3. Asqarova G. Erkalik imtiyozi. – Toshkent, 2012.
4. Rustamov X. Bebosh bulutlar. – Toshkent, 2019.
5. Sarimsoqov B. Badiiyli asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004.
6. Yo'ldoshev Q. Очқич сўз. –Тошкент: Тафаккур, 2019.
7. Хамдамов У. XX аср ўзбек шеърияти бадий тафаккур тадрийининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Филол.фан.докт... дисс (DSc)... автореф. – Тошкент, 20017.
8. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
9. https://t.me/xosiyat_rustamova